

**KIMYO FANINI HAYOT BILAN BOG'LAB O'QITISHDA
MOTIVATSIYANI OSHIRISH METODIKASI**

*Qarshi davlat universiteti doktoranti
Begamov Shaxzod To'lqin o'g'li*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lim tizimida dars va darsdan tashqari faoliyatda, kimyo fanini obyektiv reallik bilan bog'langanlik holatlaridan tizimli foydalanish g'oyasi; Kimyo fanidan dars va darsdan tashqari ishlarda o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatida o'zaro bog'liqlik g'oyasi, kimyo darslarida sinfdan tashqari mashg'ulotlar natijalaridan tizimli foydalanish.

Kalit so'zlar: o'quvchi faoliyati, pedagogika, funksiya, ko'nikmalar, mакtab faoliyati, innovatsion yondashuv, “maktab-laboratoriya”, o'quvchilarga ta`limning universalligi, innovatsion tajriba mexanizmlari.

ABSTRACT

In this article, the idea of systematic use of chemistry in connection with objective reality in the course and extracurricular activities in the educational system; The idea of interdependence in the activities of teachers and students in chemistry lessons and extracurricular activities, systematic use of the results of extracurricular activities in chemistry lessons.

KIRISH

Kimyo materialini ongli tarzda maqsadli o'zlashtirish uchun nafaqat darslar tizimidan, balki atrof-muhitni kuzatish, “inson-modda” va “modda- material-amaliy faoliyat” tizimlaridagi bog'lanishlar va munosabatlarni ochishga yordam beradigan turli xil tajribalar, ekskursiyalar, amaliy mashg'ulotlar, vizuallashtirish, shu jumladan video materiallardan ham keng foydalanish kerak. Bunga o'qituvchi faoliyatidagi turli shakllarini birlashtirish hamda sinfdan tashqari ishlar natijalaridan darslarda foydalanish muhim darajada hissa qo'shamdi. Shu sababdan mazkur tadqiqot ishimizda muhim deb hisoblagan, qiziqarli tavsiyalarni tanlab olishga va ulardan quyidagi: kimyo fanidan darslarda ham, darsdan tashqari ishlarda ham o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatini birlashtiradigan, kimyo fanini obyektiv reallik bog'langanlik didaktik tamoyilini amalga oshirishga asoslangan, kimyo faniga motivatsiyani shakllantirishga qaratilgan tizimni ishlab chiqish maqsadiga erishish uchun foydalanishga harakat qildik.

Yuqori sinf o'quvchilarini ularning tadqiqot faoliyati natijalaridan foydalangan holda darslarni tayyorlashga va o'tkazishga jalb qilish amaliyoti yaxshi natjalarni

ko'rsatadi. Aynan bir xil bilimlarni turli xil maqsadlarda qo'llash misoli sifatida - korxona, tashkilot va muzeylarga ekskursiyalar to'g'risidagi hisobotlar xizmat qiladi.

O'qitishda obyektiv reallik bilan bog'liq materiallardan vaqtı-vaqtı bilan emas, balki tizimli ravishda nafaqat darslarda, balki darsdan tashqari ishlarda ham foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kimyo fanidan sinfdan tashqari ishlar – o'quvchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarning maxsus tashkil etilgan shakli bo'lib, kuchli hissiy ta'sirga ega. Bu o'quvchilarning dunyoqarashi va tasavvurini rivojlantiradi, mustaqil o'rganishga undaydi, bilimini kengaytiradi, zukkolik va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Bu ish o'zining turlari va mazmuni jihatidan juda xilma-xil bo'lib, qoniqish tusiga ega va mavzuga qiziqishni shakllantiradi. Bu ish puxtalik bilan tashkil etishni talab qiladi. Sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirish va o'tkazishda o'qituvchi quyidagi jihatlarni hisobga olishi kerak: o'rta va yuqori sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlari, ta`lim-tarbiya jarayonini oqilona tashkil etish imkoniyati, o'quvchilarga individual yondashuvni ta`minlash va shu kabilar.

Kimyo fanidan materialni o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshirishni shakllantirish va rivojlantirish metodik tizimning yetakchi g'oyalari sifatida quyidagilarni ko'rib chiqamiz:

- dars va darsdan tashqari faoliyatda, kimyo fanini obyektiv reallik bilan bog'langanlik holatlaridan tizimli foydalanish g'oyasi;
- kimyo fanidan dars va darsdan tashqari ishlarda o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatida o'zaro bog'liqlik g'oyasi, kimyo darslarida sinfdan tashqari mashg'ulotlar natijalaridan tizimli foydalanish;
- kimyo fanini obyektiv reallik bilan bog'langanlik holatlarini o'rganishda shaxsiy tashabbus, ijodkorlik va o'zligini namoyon etish uchun o'qitishning faol metodlarining ustuvorligi g'oyasidir.

Tadqiqot ishlarida aniqlangan o'qitishning samarali motivlari – “qiziqarli” va “foydali” – o'qitishda reallik bilan bog'liq materiallardan foydalanish orqali to'liq tarzda amalga oshirilishi mumkin [N.M. Vaulina]. Mazkur motivlarning birlashuvi o'quvchilarga ta'sirning universalligini ta`minlaydi.

Obyektiv reallik bilan bog'liq materiallardan foydalangan holda tafakkur faolligi oshirish usullari

Tafakkur faolligi vaziyatlari	Darslarda tafakkur faolligi vaziyatlarini usullari	Darsdan tashqari mashg'ulotlarda tafakkur faolligi vaziyatlarini yaratish usullari
1. Tanlov vaziyatlari.	Savollarga javoblar, viktorina topshiriqlari, musobaqlar.	Individual topshiriq mavzusini, ma'lumotlarni, hisobot shaklini tanlash
2. Sabab-oqibat aloqalarini izlash.	Aniq misollar yordamida mantiqiy zanjirlar yaratish	O'rganilayotgan materialni taqdim etish mantig'i

	Kimyoviy jarayonlarni modellashtirish Kimyoviy tajribani tushuntirish	Kimyoviy jarayonlarni modellashtirish Kimyoviy tajribani tushuntirish
3. Qarama-qarshilik holatlari	Tabiat sirlari, inson hayotidagi sirli hodisalar va qiziqarli tajribalar natijalari haqidagi ma'lumotlarni tushuntirish	Tabiat sirlari, inson hayotidagi sirli hodisalar haqida hikoyalar, qiziqarli tajribalar o'tkazish.
4. Prognozlash vaziyatlari	Kimyo fani nuqtai nazaridan kundalik hayotda qo'llaniladigan reaktsiyalarni tushuntirish. Olingan kimyoviy bilimlarni obyektiv real hodisalarini tushuntirishda qo'llash	Ekskursiya davomida olingen ma'lumotlarni tushuntirish. Tadqiqot va loyiha vazifalarini bajarish

Sinfdan tashqari ishlarda:

- o'quvchilarning individual ruhiy xususiyatlarini va fan bo'yicha bilim darajasini hisobga olish, bu o'quvchi o'z ishiga qiziqishi uchun qiyinchilik darjasini bo'yicha topshiriqlarni tanlash va taqsimlashda ifodalangan;
- nostandard yechimlarni, o'z qarorini asoslash va tushuntirishga urinishlarni rag'batlantirish;
- kundalik hayotdan misol va masalalardan keng foydalanish;
- o'rganilayotgan masalalarni muhokama qilish bo'yicha darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarga yakka tartibda yoki guruhda javob berish usullarini (o'rganilayotgan materialni yaxshiroq tushunish va o'zlashtirish imkonini beruvchi she'r, krossvord, hikoyalar) mustaqil tanlash imkoniyati berildi;
- o'quvchilarga referat yoki tadqiqot vazifasi mavzusini tanlashda mustaqillik imkoniyati taqdim etilgan bo'lib, ularni baholash individual suhbat, sinf oldida chiqish yoki anjumanda ishtiroy etish yo'li bilan amalga oshirilgan;
- darsda amalga oshirib bo'lmaydigan kimyoviy tajibalarni o'tkazish, olingan axborot bilan darsda chiqish uchun hisobotni shakllantirish.

Nazariy masalalarni tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlar nuqtai nazaridan muhokama qilish, materialni taqdim etishda muayyan va mavhumni birlashtirish, tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan hodisalarini ilgari mavjud bo'lgan va zamonaviy kimyoning g'oyalari hamda qarashlari nuqtai nazaridan tushuntirish yondashuvlari qo'llanildi.

Tanlov vaziyatlari

Kimyo darslarida ko'plab bunday vaziyatlarni yaratish mumkin.

1-misol: taklif qilingan predmetlardan (temir mix, mis tanga, alyuminiy qoshiq, ko'mir bo'lagi, grafit tayoqcha, oltingugurt kukuni) metallar va nometallarni ko'rsatib bering.

2-misol. Taklif etilgan ro'yxatdan so'f moddalar va aralashmalarini ko'rsatib bering.

3-misol: 9-sinfda “Oddiy moddalar va metallar” mavzusidagi dars.

O'qituvchi “Metallardan foydalanish” jadvalini to'ldirishni taklif qiladi. O'quvchilar ilgari olgan bilimlari va obyektiv real tajribalariga asoslanib, jadvalni to'ldirishning turli xil variantlarini taklif qiladilar.

XULOSA

Yuqoridagilardan tashqari har qanday innovatsion jarayonda yangiliklarni yaratish va yangiliklardan g'oydalanish (o'zlashtirish) kabi tuzilmalarni ko'rish oson; bir-biri bilan bog'liq bo'lgan mikroinnovatsion jarayonlardan iborat bo'lgan butun mакtabning rivojlanishi asosida yotadigan murakkab innovatsion jarayon. O'qituvchilarda ijodkorlikni shakllantirishning muhim pedagogik sharti uni mustaqil bilim olish va ijodiy fikirlashga yόnaltirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, o'qituvchilar orasida ijodiy muhit, muayyan ma'naviy-ruhiy holat, tashkiliy, metodik, psixologik chora-tadbirlar qo'llashga ham alohida e'tibor qaratish lozim

ADABIYOTLAR

1. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlapini rivojlantirish. I Monografiya. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. -77-b.
2. Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondoshuvlar. - T.: Akademiya, 2020.
3. Milliy istiqlol g'oyasi. Bakalavriat bosqichi uchun darslik. - T.: Akademiya, 2020.
4. Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Faol o'rganish: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.P. Panfilov. - M., Akademiya, 2009 y.